



UO'K: 633.51:632.934.632.937.

UKROP (*ANETHUM*) NING RIVOJLANISH DAVRIDA ZARARKUNANDALAR ZICHLIGINING O'ZGARISHINI ANIQLASHNING AMALIYOTDAGI AHAMIYATI

Xo'jayev Mansur Mustafo o'g'li 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
Surxondaryo mintaqaviy filiali ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo sharoitida ukrop agrobiotsenozida uchraydigan zararkunandalar tur tarkibi, tarqalishi va bioekologiyasini o'rganish natijalari keltirilgan. Shuningdek, o'simlikning rivojlanish fazalari bo'yicha zararkunandalarning zichligida sodir bo'ladigan o'zgarishlar xususiyatini aniqlash bo'yicha ilk bor olib borilgan kuzatuvlar natijasi ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ukrop, zararkunanda, Miridae, Noctuidae, Homoptera, Coleoptera.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования видового состава, распространения и биоэкологии вредителей агробиоценоза укропа в Сурхандарьинской области. Также описаны результаты первых наблюдений для определения характера изменений плотности вредителей на разных стадиях развития растений.

Ключевые слова: укроп, вредитель, Miridae, Noctuidae, Homoptera, Coleoptera.

Abstract. This article presents the results of a study of the species composition, distribution, and bioecology of pests in the dill agrobiocenosis in the Surkhondaryo region. It also describes the results of the first observations to determine the nature of changes in the density of pests during the phases of plant development.

Keywords: dill, pest, Miridae, Noctuidae, Homoptera, Coleoptera.

KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishda har bir hududning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib mavjud ekin maydonlaridan unumli foydalanish aholini uzluksiz ravishda sifatli oziq-ovqat maxsulotlari bilan doimiy ta'minlash imkoniyatini beradi. Bu borada Surxondaryo viloyati sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlaridan mavsumda ikki, hatto uch marta hosil olinmoqda. Jumladan,





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

g'alladan bo'shagan yerlar, aholi dexkon tomorqalari va dehqon xo'jaliklarida 30 ming gektarga yaqin maydonda ukrop yetishtirilmoqda (Xo'jayev, 2023). Ilmiy-tahlillar Surxondaryo sharoitida ukrop parvarishlanayotgan maydonda, ukrop agrobiotsenozida uchraydigan zararkunandalar tur tarkibi, tarqalishi va bioekologiyasi bo'yicha tizimli ravishda ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilmaganligini ko'rsatmoqda. Bu holat esa ukrop ekini zararkunandalariga qarshi kurash tizimini izchil va yetarli darajada amalga oshirilmassligiga sabab bo'lmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olib ukrop ekinida uchraydigan zararkunandalar tur tarkibini va zichligini uning rivojlanish fazalari bo'yicha o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlarni bajarishda Sh.T.Xo'jayev (2014) va G.Ya.Bey-Biyenko (1980) larning ilmiy manbalaridan foydalanildi.

Kuzatuvlar jarayonida ukrop o'simligining rivojlanish fazalariga va barcha bajarilgan agrotexnik tadbirlariga ahamiyat berilib, hisobga olib borildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqot ishlari viloyatning ukrop eng ko'p ekiladigan, tuproq tarkibi yengil va unumdor bo'lgan Termiz tumanida olib borildi.

1. Surxondaryo mintaqasida parvarishlanayotgan ukrop agrobiotsenozida uchraydigan zararkunandalar tur tarkibi.

O'rganishlar natijasida ukrop agrobiotsenozida 4 ta turkumga kiruvchi 7 ta oilaga mansub 9 turdagi zararkunandalar uchrashi kuzatildi (1-jadval). Ulardan viloyat qishloq xo'jaligi ekinlarida keng ixtisoslashgan so'rib zarar beruvchi oddiy o'rgimchakkana (*Tetranychus urticae* Koch.), g'o'za qandalasi (*Creontiades pallidus* Rambur), dala qandalasi (*Lygus pratensis* L.), beda qandalasi (*Adelphocoris lineolatus* Goeze), tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind), shira (*Aphis gossypii* Glov), oqqanot (*Bemisia tabaci* Gen.), sikadalar (*Cicadatra guerula* pall va *Chloropsalta ochreata* Mel.), kemirib zarar beruvchi kuzgi tunlam (*Agrotis segetum* Den.et Schiff), kabi zararkunandalar qayd etildi.

Zararkunandalar tur tarkibi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki zararkunandalar turlari zichligi doimiy turg'un bo'lmasdan turli omillar va sharoitlar ta'sirida o'zgarishlarga uchrab ko'payishi yoki kamayishi kuzatilishi mumkin. Jumladan, o'rgamchakkana har ikki mavsumda bir xil ya'ni ko'p uchrashi kuzatilgan bo'lsa, g'o'za qandalasi zichligida keskin farq kuzatilib o'tgan mavsumda ko'p uchragan bo'lsa, joriy kuzatuv mavsumda uning kam uchraganligi qayd etildi. Tamaki tripsi va sikada turlari o'tgan yilda o'rtacha, joriy yilda ko'p uchraganligi qayd etildi. Oqqanot, shira, zararkunandalari bir xil ko'rsatgichda qolganligini kuzatish mumkin. Ushbu holat ukrop ekini agrobiotsenozini uning rivojlanish davrida doimiy monitoring qilib borish hamda qarshi kurash tadbirlarini o'tkazishda inobatga olinishi muhim ahamiyatga egaligini bildiradi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

1-jadval

**Surxondaryo viloyati sharoitida ukrop agrobiotsenozida uchraydigan
zararkunandalar tur tarkibi Surxondaryo viloyat Termiz tumani,
2024-2025-yil**

Sinfi	Turkumi	Oilasi	Turi	Uchrashi	
				2024	2025
O'rgamchak-simonlar (Arachnida)	Kanalar (Acariphormes)	Tetranychidae	O'rgamchakkana (tetranychus urticae Koch)	+++	+++
Hasharotlar (Insecta)	Tangaqanotlilar (Lepidoptera)	Tunlamalar (Noctuidae)	Kuzgi tunlam (Agrotis segetum Den.et Schiff)	++	++
	Yarim qattiq qanotlilar (Hemiptera)	Miridlar (Miridae)	G'o'za qandalasi (Creontiades pallidus Rambur)	+++	+
	Yarim qattiq qanotlilar (Hemiptera)	Miridlar (Miridae)	Beda qandalasi (Adelphocoris Lineolatus Goeze)	+	++
	Yarim qattiq qanotlilar (Hemiptera)	Miridlar (Miridae)	Dala qandalasi (Lygus pratensis L.)	+	+
	Hoshiya qanotlilar (Thysanoptera)	Tripslar (Thripidae)	Tamaki tripsi (Thrips tabaci Lind)	++	+++
	Teng qanotlilar (Hemiptera)	Sikadalar (Cicadidae)	Sikada	++	+++
	Teng qanotlilar (Hemiptera)	Oqqanotlar (Aleyrodidae)	Oqqanot (Bemisia tabaci Gen.)	+	+
	Teng qanotlilar (Hemiptera)	Shiraar (Aphididae)	Shira (Aphis gossupii Glov)	+	+

Izoh: + - kam, ++ - o'rtacha, +++ - ko'p.

2-jadval

Ukropning rivojlanish fazalari bo'yicha zararkunandalarning tarqalishi

Zararkunandalar nomi	Ukropning rivojlanish fazalari			
	Chinbarg (nixol)	Shonalash Vegetativ o'sish (tuplash)	Meva (urug') gullash	Pishish (qurish)
O'rgamchakkana	+++	+++	+++	+
G'o'za qandalasi	-	+	+	-
Beda qandalasi	-	+	++	++
Dala qandalasi	-	+	+	-
Tamaki tripsi	+	+	+++	+++
Sikadalar	-	+	+++	+++
Oqqanot	-	-	-	+
Shira	-	-	-	+
Kuzgi tunlam	++	+	+	++

Izoh: + - kam, ++ - o'rtacha, +++ - ko'p.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Tajribalar jarayonida ukropda uchraydigan zararkunandalarning zichligida bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganish o'simlikning rivojlanish fazalariga bog'liq holda tahlil qilib borildi. 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ukrop agrobiotsenozida uchraydigan zararkunandalar zichligi ukropning rivojlanishiga mutonasib ravishda o'zgarib turishi kuzatildi. Jumladan, o'rgamchakkana zararkunandasi ukropning butun vegetatsiya davrida kuzatilib, o'simlikning chinbarg, shonalash (tuplash) va gullash fazalarida ko'p uchradi. Shira va oqqanot zararkunandalari esa o'simlikning dastlabki rivojlanishi jarayonida umuman kuzatilmadi. Tamaki tripsi o'simlik rivojlanishining chinbarglik va shonalash (tuplash) fazalarida kam darajada, gullash fazasidan boshlab to pishish fazalarida ko'p miqdorda aniqlangan bo'lsa, sikadalar shonalash davrida kam uchrab gullash, pishish davrlarida ko'p tarqalishi qayd qilib borildi.

G'o'za va dala qandalari ukropning shonalash (tuplash), gullash fazalarida kam miqdorda uchragan bo'lsa, beda qandalasi shonalash (tuplash) davridan pishish davrigacha o'rtacha uchraganligi kuzatildi.

Kemiruvchi zararkunandalarni tahlil qilish davomida ularning tarqalishi quyidagicha kuzatildi, kuzgi tunlam zararkunandasi ukropning chinbarglik davrida o'rtacha, shonalash (tup gullash davrida kam tashkil etdi. Ukrop o'simligining turli rivojlanish fazalarida zararkunandalarning zichligidagi o'zgarishlarni ushbu usulda hisoblab borish amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

XULOSALAR

1. Surxondaryo mintaqasi sharoitida ukrop o'simligida 4 ta turkumga kiruvchi 7 ta oilaga mansub 9 turdagi zararkunandalar qayd etildi. Ushbu tur zararkunandalarning ukrop agrobiotsenozida tarqalishi turg'un bo'lmasdan turli omillar va sharoitlar ta'sirida o'zgarishlarga uchraydi. Bu esa mavsum davomida zararkunandalar zichligini tahlil qilish asosida ularga qarshi kurash ishlarini to'g'ri tashkil etish va samaraga erishish imkonini yaratadi.

2. Zararkunandalar tur tarkibi va zichligini ukropning rivojlanish fazalari bo'yicha monitoring qilish asosida ularga qarshi uyg'unlashgan kurash usullarini tizimli va o'z muddatida samarali qo'llashda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Bey-Bienko G.Ya. Obshchaya entomologiya. 3-e izd., dop. – M.: Vyssh. Shkola, 1980. S. 416.
2. Xo'jaev Sh.T. va boshqalar. G'alladan keyin ekiladigan o'rindosh ekinlarni zararkunandalardan himoya qilish. Toshkent, 2014. B.78-82.
3. Xo'jayev M.M. Magistrlik dissertatsiya ishi 2023.

